

YANGI O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA  
MUTAXASSISLARNI TAYYORALASHGA OID DAVLAT SIYOSATI

Turdimuratov Y.A.

O'zDJTSU, falsafa doktori (PhD), dotsent.

Djo'rabayev A.M.,

O'zDJTSU, o'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10781830>

*Annotatsiya. Mazkur maqolada 2017-2023-yillarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni tayyorlash borasida amalga oshirilgan islohotlar, ushbu yo'naliishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularda belgilangan ustuvor yo'nalaishlar va vazifalar tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, mutaxassis, trenerlar, sportchilar, konsepsiya, seleksiya, ta'lim, ilm, kompetensiya, transfer.*

STATE POLICY ON TRAINING SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE NEW UZBEKISTAN

*Abstract. This article analyzes the reforms carried out in Uzbekistan in 2017-2023 regarding the training of specialists in the field of physical culture and sports, the regulatory documents adopted in this direction, the priorities and tasks set in them.*

*Key words:* physical education, sports, specialist, coaches, athletes, concept, selection, education, science, competence, transfer.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

*Аннотация. В данной статье анализируются реформы, проводимые в Узбекистане в 2017-2023 гг. в части подготовки специалистов в области физической культуры и спорта, нормативно-правовые документы, принятые в этом направлении, приоритеты и поставленные в них задачи.*

*Ключевые слова:* физкультура, спорт, специалист, тренеры, спортсмены, концепция, селекция, образование, наука, компетентность, трансфер.

Kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar har sohada bo'lgani kabi jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda ham ushbu soha bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash, ular ko'lamini oshirish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelinnoqda. Eng avvalo, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida so'ngi yillarda mamlakatimizda sohaga oid bir qator me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiysi" va "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi" tasdiqlandi [1].

Yangicha fikrlaydigan trener kadrlarni tanlash va tayyorlashni tashkil etish, seleksiya yo'li bilan iqtidorli sportchilarni tanlash, seleksioner trenerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-

tadbirlarini kuchaytirish Konsepsiysi va Dasturni amalga oshirish doirasidagi ustuvor yo‘nalishlar va vazifalardan biri etib belgilandi.

Konsepsiada yangicha fikrlaydigan trener kadrlarni tanlash va tayyorlashni tashkil etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Muayyan ko‘nikma va sifatlarga ega bo‘lgan abituriyentlarning trenerlik kasbida ishlashga ishtiyoqini aniqlash uchun O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga talabalarни tanlash jarayonini takomillashtirish.

2. Oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini yangilash, amaliy komponentlar ulushini ko‘paytirish, yuqori natijalarni namoyish qiluvchi eng tajribali trenerlar rahbarligida mashg‘ulotlarni muntazamlilik asosida o‘tkazish amaliyotini joriy etish.

3. Respublikada hamma joyda o‘quv-mashq jarayoniga yetakchi jahon mutaxassislarini tizimli asosda jalb etishni tashkil etishga ko‘maklashish.

4. Sport tayyorgarligi eng muvaffaqiyatli tizimga ega bo‘lgan mamlakatlardan mutaxassislarini jalb etib, yangicha fikrlaydigan trenerlar va ma’muriy kadrlarni tayyorlash uchun eng yangi sport texnologiyalaridan foydalanim, sport ixtisosligidagi xorijiy oliy ta’lim muassasalari va sportchilarni tayyorlash markazlarining filiallarini tashkil etish.

5. Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi bo‘yicha sirtqi bo‘limlarga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish kvotalarini ko‘paytirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining taqdimnomasi bo‘yicha respublikaning trener kadrlar yetishmaydigan chekka tog‘li va cho‘l tumanlaridan (shaharlaridan) abituriyentlarni imtiyozli o‘qishga qabul qilish uchun kvotalar ajratish.

6. Trener kasbining yuqori maqomi va nufuzini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish, o‘zini o‘zi to‘laqonli namoyon qilish va professional o‘sish uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun yosh avlodni tarbiyalash bilan shug‘ullanadigan inson sifatida trenerning ijobiy qiyofasini shakllantirish.

2020-yil 24-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbiralri to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” tasdiqlandi [2]. Qarorga ko‘ra, davlat sport ta’limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan oliy ma’lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha yetkazish jismoniy tarbiya va sport tizimini isloq qilishning 2025-yilgacha asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.

Konsepsiada sohani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining ma’lum bir sport turi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tiborini qaratgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

sport mashg‘ulotlari o‘tishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirish, sport psixologiyasini tushunish, sport tayyorgarligi davrida tibbiy nazoratni amalga oshirish nuqtai nazaridan trenerlarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

bo‘lajak trener va mutaxassis kadrlarda o‘z faoliyatiga moyillik va ijodkorlik qobiliyatları mavjudligini aniqlash va baholash imkonini beruvchi uslublarni ishlab chiqish;

sport ta’limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibini, xususan oliy ma’lumotga (bakalavr, magistr) ega bo‘lganlar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

yosh trener va mutaxassislarni kasbiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida 2020-yil 3-noyabrda qabul qilngan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbiralri to‘g‘risida”gi Qarori soha rivojiga qaratilgan muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi [3]. Ushbu qarorga ko‘ra, Sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik holatini o‘rganish va tahvil qilish bo‘yicha maxsus ilmiy laboratoriyasi negizida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti tashkil etildi [9]. Shuningdek, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko‘rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma’lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish va O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta’limi muassasalariga jalb etish belgilab qo‘yilgan [4]. Ushbu chora-tadbirlar orqali sport-ta’lim muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibini oshirish nazarda tutilgan.

2022-yil 6-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi [5]. Ushbu qarordan ko‘zlangan asosiy maqsad – Olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha yuqori malakali hamda zamonaviy bilim va texnologiyalarini o‘zlashtirgan trener, hakam, seleksioner va boshqa mutaxassislarni tayyorlashdir. Institutga olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoa a’zosi bo‘lgan yoshlар ularning sport natijalariga qarab hamda seleksiya bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Institutning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ta’limning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini joriy qilgan holda va ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olib jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, jumladan Xalqaro toifadagi O‘zbekiston sport ustasi hamda O‘zbekiston sport ustasi, shuningdek, O‘zbekiston sport ustaligiga nomzod sportchilarni tayyorlash;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorash tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi ta’lim dasturlarini hamda o‘quv mashg‘ulotlarining innovatsion shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;

- talabalarning kasbiy moyilligi, mahorati va ko‘nikmalarini chuqr rivojlantirish va h.k.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorash, ta’lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruva tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg‘or xorijiy sport-ta’lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish maqsadida 2022-

yil 3-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyoralsh hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiralri to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [6]. Qarorga asosan, talabalarda sport mahoratini doimiy ravishda yuksaltirish hamda ularning personal trayektoriyalar bo‘yicha variativ (o‘zgaruvchan) o‘quv rejalarini asosida ta’lim olishlari uchun o‘quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilib, mazkur tizim 2024/2025 o‘quv yiliga qadar to‘liq joriy qilinadi. Shuningdek, 2024/2025 o‘quv yiliga qadar barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid malaka talablari qayta ko‘rib chiqiladi, shu jumladan bitiruvchi bakalavr va magistrantlarning bilimi, mahorati va pedagogik ko‘nikmalarini baholovchi kompetensiyalarni sertifikatlash tizimi ham joriy etiladi.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida o‘quv va mashg‘ulotlar jarayoniga federatsiyalarning tajribali mutaxassislari hamda xorijiy ekspertlar jalg qilinadi. Sport sohasida faxriy unvon va toifa darajasiga ega bo‘lgan, nufuzli xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lgan abituriyentlar kasbiy imtihonlarni topshirishdan ozod qilinadi. Talabalarni rag‘batlantirish uchun jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlarida 2023-yil 1-yanvardan boshlab Pahlavon Mahmud nomidagi davlat stipendiyasi joriy etildi. Iqtidorli bitiruvchilarga sport bo‘yicha hakam hamda ikkinchi toifali trener maqomi beriladi.

Ta’lim va ilm bog‘liqligini mustahkamlash uchun yagona kuzatuv kengashi tuzish rejalashtirilgan. Bu kengash sport muassasalarining boshqaruv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini samarali tashkil qilishga bosh-qosh bo‘ladi. Shuningdek, Jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy salohiyatini 45 foizgacha chiqarish, professor-o‘qituvchilarning faoliyati natijadorligini oshirish, yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etib, xalqaro reytinglarga kirish maqsadlari belgilanmoqda [10].

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlari institutiga sport biomexanikasi, fiziologiyasi, farmakologiyasi va genetikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini transfer qilish va tijoratlasingish, startap loyihalarni amalga oshirish kabi yangi vazifalar yuklatilmoqda. Ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish, yosh kadrlarni xorijiy o‘quv yurtlariga falsafa doktori (PhD) darajasini himoya qilish uchun yuborish ham nazarda tutilgan.

Qaror asosida 2022-2025-yillarda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari va universitet faoliyatini kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. 2024-yil 1-yanvarda universitet tuzilmasida Kompetensiyalarni baholash markazi tashkil qilindi. Sport-ta’lim va oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlari, trenerlari, metodistlari, boshqa xodimlari hamda bitiruvchilarining bilim va amaliy ko‘nikmalari darajasini baholash, ularning pedagogik va ilmiy salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish Kompetensiyalarni baholash markazining asosiy vazifalari etib belgilandi [11].

Umuman olganda, respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish

maqsadida bir qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular asosida sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 13-fevraldagi 118-sон Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbiralri to'g'rida" 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sон Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Rezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyoralsh tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbiralri to'g'risida" 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-sон Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sон Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 6-iyundagi PQ-269-sон Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyoralsh hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiralri to'g'risida" 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sон Qarori.
7. Turdimuratov Я. О 'zbekistonda etnosportni ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo 'nalishlari //Актуальные проблемы спортивной науки. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 125-128.
8. Allamuratovich T. Y. YANGI O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA OID DAVLAT SIYOSATI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 575-581.
9. Turdimuratov Y. A. AN'ANAVIY XO 'JALIKDA FENOLOGIK BILIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI //International scientific journal of Biruni. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 257-264.
10. Jumayev U. X. et al. ANALYSIS OF THE FINANCIAL POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN OFFICIAL DOCUMENTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 1202-1209.
11. Турдимуратов Я. А. КОЧЕВОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКОВ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА В КОНЦЕ XIX–НАЧАЛО XX ВВ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 546-557.
12. Turdimuratov Y. A. O 'ZBEKISTONDA BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHGA OID DAVLAT SIYOSATI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 144-152.
13. Turdimuratov Y. A. NATIONAL VETERINARY MEDICINE IN TRADITIONAL UZBEK LIVESTOCK BREEDING //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 3. – С. 468-471.

14. Турдимуратов Я. А. НАРОДНЫЕ ПОВЕРЬЯ В ТРАДИЦИОННОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКОВ, СВЯЗАННЫЕ С «КУЛЬТОМ СВЯТЫХ» //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 188-198.